



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **11 406** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3 293** taga kamaygan yoki **77,6 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-sentabrida **1 774** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,1 %** ga ko'p demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
895	Oqoltin	737
1 121	Boyovut	1 002
1 158	Sayxunobod	914
1 110	Guliston	915
864	Sardoba	899
1 297	Mirzaobod	1 061
2 088	Sirdaryo	1 390
759	Xovos	659
4 051	Guliston sh.	2 702
339	Shirin sh.	296
1 017	Yangiyer sh.	831

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **14 406** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 774** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 702** tani yoki jamiga nisbatan **18,8 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Guliston sh.	27,8
Yangiyer sh.	17,9
Shirin sh.	15,3
Oqoltin	20,1
Boyovut	11,8
Sayxunobod	17,2
Guliston	19,0
Sardoba	21,3
Mirzaobod	18,0
Sirdaryo	14,7
Xovos	14,3

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **17,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,5** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **27,8** birlik, Sardoba tumanida **21,3** birlik, Oqoltin tumanida **20,1** birlik, Guliston tumanida **19,0** birlik va Mirzaobod tumanida **18,0** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Guliston shahri
– 27,8 birlik.



O'rta ko'rsatkich

Yangiyer shahar
– 17,9 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Oqoltin tumani
– 11,8 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **27,8** birlik, Sardoba tumanida **21,3** birlik, Oqoltin tumanida **20,1** birlik, Guliston tumanida **19,0** birlik, Mirzaobod tumanida **18,0** birlik, Yangiyer shahrida **17,9** Sayxunobod tumanida **17,2** birlik, Shirin shahrida **15,3** birlik va Sirdaryo tumanida **14,7** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Guliston shahri

27,8

Oqoltin tumani

20,1

Mirzaobod tumani

18,0

Sardoba tumani

21,3

Guliston tumani

19,0

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

341	Guliston sh.	354
200	Sardoba	235
230	Sirdaryo	206
156	Oqoltin	167
127	Mirzaobod	145
106	Sayxunobod	144
141	Guliston	139
143	Boyovut	129
84	Yangiyer sh.	121
75	Xovos	103
38	Shirin sh.	31

2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – **20,0%**, Sardoba – **13,2%**, Sirdaryo – **11,6%**, Oqoltin – **9,4%**, Mirzaobod – **8,2%**, Sayxunobod – **8,1%**, Guliston – **7,8%** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 731 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 472 ta hamda sanoatda 217 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida 354 ta, Sardoba tumanida 235 ta hamda Sirdaryo tumanida 206 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulishi % da




So'nggi yillarda Sirdaryo viloyati tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **10 687** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **3 846** (yoki **36,0** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 180** (yoki **20,4** %) ta, sanoat sohasida – **1 946** (yoki **89,3** %) ta, Qurilish sohasida – **894** (yoki **8,4** %) ta va boshqa turlarda – **702** (yoki **6,6** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2022- y. ■ 2023- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,5** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **1,1** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **96,9** % ni, yo'lovchi aylanmasida **97,6** % ni, yo'lovchi tashishda **95,3** % ni, chakana savdoda **92,2** % ni, yuk aylanmasida **85,3** %, qurilishida **83,6** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 398,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (**997,8** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**555,8** mlrd. so'm), Guliston shahri (**431,7** mlrd. so'm), Shirin shahri (**372,3** mlrd. so'm) va Sayxunobod (**255,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Oqoltinda (**84,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2019-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sirdaryo tumani (29,4 %), Yangiyer shahri (16,4 %), Guliston shahri (12,7 %), Shirin shahri (11,0 %), Sayxunobod tumani (7,5 %), Mirzaobod (5,1 %), Xovos tumani (4,5 %), Boyovut tumani (4,3 %), va Sardoba tumanida (3,8 %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Guliston sh.	67,4	61,9
Shirin sh.	47,1	27,5
Yangiyer sh.	151,9	99,2
Oqoltin	57,0	99,1
Boyovut	66,6	96,8
Sayxunobod	48,1	97,4
Guliston	78,9	76,5
Sardoba	97,6	99,0
Mirzaobod	572,7	87
Sirdaryo	333,9	70,3
Xovos	67,4	61,9

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 233,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **83,6** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **107,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzaobod (**572,7** mlrd. so'm), Yangiyer sh. (**151,9** mlrd. so'm), Sardoba (**97,6** mlrd. so'm), Guliston (**78,9** mlrd. so'm), Xovos (**67,4** mlrd. so'm), Guliston shahrida (**67,4** mlrd. so'm) hamda Oqoltin (**57,0** mlrd. so'm) mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7 234,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **79,0 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **93,0 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Boyovut tumani (**5 061,8** mlrd. so'm), Sirdaryo (**768,3** mlrd. so'm), Guliston shahri (**357,8** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**348,3** mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (**305,0** mlrd. so'm), Shirin shahri (**105,1** mlrd. so'm), hamda Sayxunobod tumani (**90,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **9 836,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **96,9** % ni tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,2** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Sayxunobod	1 511,6	99,5
Boyovut	1 484,8	99,9
Sirdaryo	1 316,8	98,7
Oqoltin	1 113,1	91,6
Xovos	1 107,4	99,3
Guliston	1 099,1	99,6
Sardoba	1 024,0	92,9
Mirzaobod	879,6	90,2
Guliston sh.	238,2	99,9
Yangiyer sh.	32,3	100,0
Shirin sh.	29,8	100,0


2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



hajmi, mlrd. so‘mda 
ulushi, % da 


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Sayxunobod (**1 511,6** mlrd. so‘m), Boyovut (**1 484,8** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**1 316,8** mlrd. so‘m), Oqoltin (**1 113,1** mlrd. so‘m), Xovos (**1 107,4** mlrd. so‘m) hamda Guliston (**1 099,1** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 042,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,2 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **104,7 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Guliston sh.	1 120,3	90,5
Sirdaryo	632,6	98,1
Yangiyer sh.	294,0	93,9
Mirzaobod	217,7	96,4
Boyovut	138,7	70,7
Guliston	134,6	82,9
Sardoba	125,9	98,9
Oqoltin	120,4	97,9
Sayxunobod	117,8	93,7
Xovos	97,9	96,7
Shirin sh.	42,2	99,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (**1 120,3** mlrd. so'm), Sirdaryo (**632,6** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**294,0** mlrd. so'm), Mirzaobod (**217,7** mlrd. so'm), Boyovut (**138,7** mlrd. so'm), va Guliston (**134,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 195,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **50,4 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri (**623,7** mlrd. so'm), Sirdaryo (**402,6** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**243,3** mlrd. so'm), Mirzaobod (**170,6** mlrd. so'm), Xovos (**144,5** mlrd. so'm), Boyovut (**141,3** mlrd. so'm) va Guliston (**122,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-sentabr oylarida)

461,4	Savdo xizmatlari	51,7
96,6	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	10,8
84,2	Transport xizmatlar	9,4
58,7	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	6,6
50,7	Boshqa xizmatlar	5,7
41,1	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4,6
29,5	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,3
16,7	Ijara xizmatlari	1,9
16,1	Moliyaviy xizmatlar	1,8
14,9	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,7
9,9	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1,1
8,6	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1,0
3,7	Boshqa shaxsiy xizmatlar	0,4

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **51,7 % (461,4 mlrd. so'm)**, yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **10,8 % (99,6 mlrd. so'm)**, transport xizmatlarda – **9,4 % (84,2 mlrd. so'm)** hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarida **6,6 % (58,7 mlrd. so'm)**ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi boshqa shaxsiy xizmatlarda **0,4 % (3,7 mlrd. so'm)** kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y 2019- y 2020- y 2021- y 2022- y 2023- y

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiyer sh.	88 011,9	97,4
Sirdaryo	22 695,8	36,0
Boyovut	15 351,4	35,5
Sayxunobod	14 949,1	65,3
Xovos	5 546,2	80,9
Mirzaobod	4 525,1	33,3
Oqoltin	3 297,3	95,9
Sardoba	2 821,5	99,0
Guliston sh.	2 277,8	14,4
Shirin sh.	958,0	100,0
Guliston	170,2	1,6

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **160,8** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **63,2** % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shirin shahrida – **100,0** %, Sardoba tumanida – **99,0** %, Yangiyer shahrida – **97,4** %, Oqoltin tumanida – **95,9** %, Xovos tumanida – **80,9** %, Sayxunobod tumanida – **65,3** %, Boyovut tumanida – **64,7** % va Sirdaryo tumanida – **36,0** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – **1,6** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **260,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **70,7** % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Sardoba tumanida – **100,0** %, Yangiyer shahrida – **99,6** %, Guliston tumanida – **99,3** %, Oqoltin tumanida – **98,9** %, Sayxunobod tumanida – **98,7** %, hamda Shirin shahrida **98,1** % ni tashkil etdi.


Sardoba	100,0
Yangiyer sh.	99,6
Guliston	99,3
Oqoltin	98,9
Sayxunobod	98,7
Shirin sh.	98,1
Mirzaobod	82,5
Boyovut	75,7
Sirdaryo	63,1
Guliston sh.	51,2
Xovos	15,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2023- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,0 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **85,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,6 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,2 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 551 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 141 (25,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 350 (63,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 60 (10,9 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 43,9 % (242 ta), xizmatlar sohasida – 26,3 % (145 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,7 % (70 ta), sanoatda – 8,7 % (48 ta), qurilishda – 8,3 % (46 ta) ni tashkil etdi.

2023- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

146	Guliston sh.	26,5
16	Shirin sh.	2,9
47	Yangiyer sh.	8,5
36	Oqoltin	6,5
50	Boyovut	9,1
45	Sayxunobod	8,2
29	Guliston	5,3
40	Sardoba	7,3
34	Mirzaobod	6,2
79	Sirdaryo	14,3
29	Xovos	5,3


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (146 ta), Sirdaryo (79 ta), Boyovut (50 ta), Yangiyer shahri (47 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III- choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning III- choragida **154** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III- choragiga kelib esa **141** ta yoki 2018- yilning III- choragiga nisbatan **13** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **127** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **350** ta yoki **223** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **28** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **60** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **32** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III- choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning III- choragida **205** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III- choragiga kelib esa **168** ta yoki 2018- yilga nisbatan **37** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning III- choragida **89** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III- choragida **266** taga yetgan yoki **177** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilning III- choragida **15** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **60** tani tashkil etib, **45** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III- choragida **49,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **25,6** % ga yoki 2018- yilga nisbatan **24,2** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **41,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III- choragida **63,5** % yoki **22,4** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **9,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **10,9** % ga yetgan yoki **1,8** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar III- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III- choragida **66,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **34,0** % ga yetgan yoki 2018- yilning III- choragiga nisbatan **32,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III- choragida **28,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **53,8** % yoki **25,0** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilning III- choragida **4,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **12,1** % yoki **7,2** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning III- choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda – **53,9** % ni, xizmatlar sohasida – **24,8** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **8,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **41,1** % ni, xizmatlar sohasida – **27,4** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **14,0** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **36,7** % ni, xizmatlar sohasida – **23,3** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **15,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,4** % ni, xizmatlar sohasida – **24,3** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **43,4** % ni, xizmatlar sohasida – **28,7** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,2** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **45,5** % ni, xizmatlar va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **18,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, %
da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	36,4	50,3	13,3
Band bo'lganlar soni	14,7	75,2	10,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,1	55,1	9,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	33,9	54,7	11,4
Raqobat muhiti	41,1	51,1	7,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,1	51,9	4,0
Band bo'lganlar soni	20,5	75,5	4,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,6	57,9	4,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	35,8	59,3	4,9
Raqobat muhiti	39,9	56,5	3,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli